



**O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2024-yil II yarim yillik ish  
REJASI**

t/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Normativ-huquqiy asosi	Maqsad (kutlayotgan natija)	Mas'ul ijrochilar
1.	2024-yil II choragida shakllangan pul-kredit siyosati sharoitlari tahlili hamda Markaziy bank asosiy stavkasini ko'rib chiqish.	1. Joriy makroiqtisodiy vaziyat, shakllangan pul-kredit sharoitlarini tahlil qilish va Markaziy bankning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha o'rta muddatli prognozlarini yangilash. 2. Markaziy bank Kredit qo'mitasiga pul-kredit siyosati sharoitlari, makroiqtisodiy prognozlar va asosiy stavkani ko'rib chiqish bo'yicha takliflarni kiritish.	2024-yil 25-iyul	"O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-noyabrdagi "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5877-sonli farmoni.	Iqtisodiyotda monetar omillar ta'sirlarini minimallashtirish orqali narxlar barqarorligini ta'minlash, 2024-yilda inflyatsiyani prognoz ko'rsatkichlarigacha va 2025-yilda target darajasigacha pasaytirish.	B.S.Hamrayev E.E.Zakirov
2.	2024-yil yanvar-avgustdagi pul-kredit sharoitlari tahlili hamda Markaziy bank asosiy stavkasini ko'rib chiqish.		2024-yil 12-sentabr			
3.	2024-yil III choragida pul-kredit siyosati sharoitlari tahlili hamda Markaziy bank asosiy stavkasini ko'rib chiqish.		2024-yil 24-oktabr			
4.	2024-yil yanvar-noyabrdagi pul-kredit sharoitlari tahlili hamda Markaziy bank asosiy stavkasini ko'rib chiqish.	3. Markaziy bank boshqaruvi yig'ilishida shakllangan pul-kredit siyosati sharoitlari, makroiqtisodiy prognozlar va asosiy stavka bo'yicha takliflarni taqdim etish.	2024-yil 12-dekabr			